



TERMIZ SHAHRIDAGI AYRIM NEKROTOPONIMLAR

Abdullayeva Yulduzxon Baxtiyorjonovna

Termiz davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Termiz shahridagi ayrim nekrotoponimlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Al-Hakim at-Termiziy, Abu Iso Termiziy, Murch bobo maqbaralarining nekrotoponimlari leksik-semantik tarafidan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: topomin, nekrotoponim, maqbara va ularning tarixiy ahamiyati.

Toponim - xalqning etnik shakllanishiga doir tarixiy ma'lumotning transformatori;

- geografik obyektning indikatori;
- milliy olamni anglash, bilish, tushunishiga doir madaniy muhitning qismidir.

Toponim lisoniy shaxs kommunikativ ko'lamining ikki darajasida mavjuddir. Bu: 1) til va 2) madaniyat. Toponimlarni hayotni talqin qilishning madaniy-falsafiy qirrasida o'rniga ega onimlar deb hisoblash zarur.

Toponimik obyektlarning tasnifi dastlab ularning: 1) tabiiy geografik obyektlar, 2) hududiy va hududiy-ma'muriy birliklar nomi, 3) aholi yashash hududlarining nomlari, 4) ko'cha-yo'l tarmog'i elementlari va transport infrastrukturasi nomlari, 5) muqaddaslashtirilgan joy nomlariga bo'linishidan kelib chiqadi.

Shulardan muqaddaslashtirilgan joy nomlariga to'xtalib o'tsak. Bularga:

- nekrotoponim - maqbara va qabristonlar nomi;
- teotoponim - ziyoratgoh, muqaddaslashtirilgan joy nomlari;
- ekklezionim - diniy marosim va urf-odatlarni o'tkazish joyining nomi.

Tilshunos V.M. Mayorov nekrotoponimlar xususiyatidan kelib chiqib, ularni 5 ta guruhga bo'ladi. Ular orasida shahar va qishloqlarning amaldagi va eski qabristonlaridan tortib, monastir va ibodatxonalarning qo'ng'iroqxonalariga qadar tasniflar o'rinn olgan. Vaholanki, biz bu bo'linishni o'z geografik va e'tiqodiy sharoitimizga mos bilmaganimiz tufayli, O'zbekistonning nekrotoponimlarni quyidagicha guruhashni maqsadga muvofiq bilamiz:

1. Shahar va qishloqlarning amaldagi qabristonlari.

2. Shahar va qishloqlarning eski (ko'hna) qabristonlari.

3. Nekropol (o'lik shahar), panteon, memorial maqbaralar (Surxondaryo viloyati: Kampirtepa, Sopollite

4. Nekroinsulonimlar (masalan, Payg'ambarorol).

5. Turli shakldagi epitafik bitiklar.

6. Ekklezionimlar (shartli).

O'zbekistonning oltin darvozasi hisoblangan Termiz shahri toponimlarini o'rganishda taniqli arxeologik olim ustoz Shokir Pidayevning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Uning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra Termizda IX-XIII asrlarda masjid, maqbara, minora, xonaqolar va ziyoratgohlar ko'plab qurilgan. IX asrda yashab o'tgan shaharning valiy homiysi hisoblanadigan ko'plab So'fiyona-falsafiy asarlar muallifi, so'fiylikning o'n ikki oqimidan biri "hakimiya" darveshlar tariqatining asoschisi Hakim at-Termiziy majmuyidagi

nekrotoponim Termizdag'i asosiy qadamjodir. Diniy maqsaddagi me'morchilik arab fathidan so'ng musulmon diniy binolari masjid va xonaqolarning roli oshib bordi. Termiz ravnaq topgan XI-XII asrlarda bu yerda ushbu soha jadal ravnaq topdi. Xususan:

Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi. Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi-Termizdag'i me'moriy yodgorlik IX-XV asrlarga oid. Majmua Abu Abdullo Muhammad Hakim Termiziyy nomi bilan bog'langan. Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasi asrlar davomida bir necha bor qayta qurilgan. Masjid, maqbara, xonaqoh, qorixona kabi binolardan iborat bo'lgan. Markazga intilma gumbazli maqbaraning ayvon va sahni masjid bilan birlashtirilib yuborilgan, maqbara chortoq shaklida qad rostlagan bo'lib, ichkarida ochiq arkli peshtoqlar zeb berib turadi. XI asr oxirida qoraxoniylar hukmdori Abul Muzaffar Ahmad Tigatigin (1081-1095 йй.) farmoyishi bo'yicha daxma ichkarisi ajoyib o'ymakorlik g'isht bilan qoplab chiqilgan. Maqbaraning shimoliy yonveriga uncha katta bo'lмаган masjid tutashtirilgan. Masjidning hajm-reja kompozitsiyasi Narshaxiy tasvirlagan Buxoro namozgohi me'morchiligiga o'xshab ketadi. U uch qubbali bo'lib, ochiq arkli peshtoqi tevarakdag'i "archa" usulida g'isht terib chiqilgan hovli sahniga olib chiqadi. Masjidning maqbara devori davomchisi bo'lgan g'arbiy devori markazida mehrob qad ko'targan.

XIII asr oxirida dahmaning sharqiy devoriga yana bir chorsi maqbara kelib ulanadi. XV asr boshida Amir Temuring nabirasi Xalil Sulton hukmronligi davrida(1405-1409) majmuuning shimoli-sharqiy qismida mahobatli xonaqoh qad rostlaydi. Marmardan tiklangan sag'ana ham shu davrda barpo etilgan-bu Temuriylar davri ustalarining tosh yo'nish va naqsh chizish san'ati durdonalaridan biridir.

Temuriylar hukmronligi davrida xonaqoh baland asos (balandligi 1,5 m) ustiga pishiq g'ishtdan qayta qurildi. Unga tutash bo'lgan xonalar ta'mirlandi. Xonaqohning shimoliy va janubiy tomonlariga peshtoq ishlandi. Masjidning g'arbiy devor markazida keng hoshiyali mehrob bor. Undagi bo'rtma yozuv sopol shakillar, oraliq zaminidagi o'yma ganch bezaklar o'ziga xos. Masjid ustunlari g'ishtdan bezak qilib terilgan.

Masjiddan ravoq orqali maqbaraga o'tiladi. Maqbara ichi ganch o'ymakorligida gilam nusxa bezakda serhasham pardozlangan. Gumbaz osti sharfasida kufiy xatida Qur'onning 36-surasi o'yib yozilgan, ichi ham yulduzsimon girih naqshlar bilan pardozlangan. Ravoqlaridagi tobardonlariga panjaralar o'rnatilgan.

Maqbara ichidagi marmar sag'ana Temuriylar davridagi tosh o'ymakorligi san'atining yuksak namunasidir. Sag'ana 3 pog'onali, asosiy islomiy naqsh va yozuvli hoshiyalar bilan o'rta qismidagi 3 mehrobiy tokchaning makaziy (o'rta) qismi muqarnas kosachalar bilan, yoni shamchiroq tasviri bilan bezatilgan. Sag'anadagi yozuvlarda Termiziyy hayoti va faoliyati tasvirlangan.

Kichik maqbarada ham ta'mirlash ishlari olib borilgan. Abdullaxon hukmronligi davri (XVI asr)da hazira (hovli) hududida 9 gumbazli masjid (eski masjidni o'zichigaolgan) qurilgan. Oldida yengi ravoq-ustunli ayvon joylashgan. XIX asrda 9 gumbazli masjid o'rnidagi 4 gumbazli masjid bunyod etilgan. Janubdan kiraverishda yana bir maqbara (go'rxona va ziyyaratxonadan iborat) qurilib, ravoqli bo'lmalari orqali Termiziyy maqbarasi va xonaqoh bilan o'zaro bog'langan. Al-Hakim at-Termiziyy maqbarasining asosiy qismi Amir Temur



davrida 1390-yilning avgust-sentabr oyida qurib bitkazilgan. Al-Hakim at-Termiziy inshoati ancha katta bo'limgan, to'rtburchak shaklda bo'lib, usti gumbaz qilingan. Gumbazli ikki qatorli so'nggi davrlar qurilishi madaniy qoplamlari bilano'rالganbo'lib, inshoot peshtoqida turli yozuvlar mavjud.

Maqbara haqidagi dastlabki ma'lumotlarni 1878-yilda A. Bekova aniqlagan. 1926–1927-yillarda Sharqning madaniyat muzeyi xodimlari B. P. Denikey va B. N. Zasipkinlar inshootning o'lchamini o'rgangan. 1936-yilda TAKE (Termiz arxeologik kompleksekspeditsiyasi) a'zolari M.E.

Masson boshchiligidagi tadqiqot ishlarini o'tkazishgan. 1938 yilda G. A. Pugachenkova maqbara haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan. 1947-yilda V. P. Petrov, 1955-yilda V. M. Filimanov va K. A. Shaxirinlar boshchiligidagi yodgorlikning ta'mirlanishiga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan. Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, Shayboniylardan bo'lgan Abdullaxon 1573-yil Balxni qamal qilish paytida Sayyid Abdulloh at-Termiziyning o'g'li Mir Arabning uytida qo'nim topgan. Abdullaxon Termizda bo'lganida Al-Hakim at-Termiziy va Varroq at-Termiziyning mozorlarini ziyyarat qilgan.

Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi 1955–57-yillarda ilmiy o'rganilib, XIV–XV asrlardagi ko'rinishi qayta tiklandi. 1980–81-yillar va 2001–2002-yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardozlandi. Majmuaning umumiy tarxi 28,0x29,0 м, maqbara 5,10 x 4,70 м.

Abu Iso Termiziy maqbarasi-Hoja Iso maqbara masjidi XI–XII asrlarga taalluqli bo'lib, Sherobod shahridan janubi-sharqda, 6 km uzoqlikda joylashgan. Yodgorlik shimoli-g'arb-janib-sharq o'qi bo'y lab joylashgan to'rt hadli binodan iborat.

Obida shu atrofdagi qishloqlarning aholisi uchun bayram namozgohi bo'lib xizmat qilgan va shu bois, uning asosida an'anaviy anfiladlik tamoyili yotadi. Tarixiy adabiyotda birinchi muhaddislardan Abu Iso Muhammad bin Iso at-Termiziy nomi tilga olinadi. As-Samoniyning xabar berishicha, Abu Iso Termiziy al-Buxoriyning ustozlaridan ma'ruza eshitgan. Uni yetuk islomshunoslar qatoriga qo'yib, hazrat Alisher Navoiy guvohlikberadki, muhaddis Hoja Iso mashhur avliyo Abu Varroq Termiziyning jiyani bo'lgan.

Abu Iso at-Termiziy maqbarasining makaziylarini zal va masjid mehrob bilan, janubdagagi go'rxona tarafidan esa əca g'ishtli peshtoq bilan, shimol tomondan keng ayvon bilan o'ralgan. Uchinchi zal ham sakkiz qirrali peshayvon bilan o'ralgan. Uchinchi zalning shimoliy qismi uch qirrali peshayvon va sakkiz qirrali naqshlar o'yilgan. Xonalarga uncha katta bo'limgan derazalar orqali yorug'lik tushib turadi.

Bino ko'pgina o'zgarishlarni boshdan kechirgan. Masjid bilan maqbara bir-biriga bog'lanib deraza romlari qaytadan ishlangan. Ayvon XV asrda shimoli-g'arbga qarab yo'naltirilgan hamda majmua shimoli-g'arbiy tomondan anchagina shikastlangan. Maqbaeaning old tarafiga XX asrning boshlarida ustunlari o'ymakorlik bilan ishlangan ayvon qurilgan va ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan.

Abu Iso at-Termiziy arxitekturasining qurilishi bo'yicha dastlab N. Logofit 1945-yilda V. A. Voronin 1968-yolda, arxeolog Z..A. Hakimov, 1977-yilda A. Akimenko, I. Gudkov va V.A. Arshavskayalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Murch bobo maqbarasi - Termiz shahrida joylashgan. Maqbarani o'rganish maqsadida 1947-yilda G. P. Petrov, 1966-yilda Yu. Z. Shvab, A. Tkachenko N. N. Kuzimenalar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Murch bobo maqbarasi So'fiylardan bo'lgan Sayyid Abduvali Samarqandiy, laqabi Murch bobo bo'lgan kishining nomi bilan ataladigan muqaddas ziyoratgoh hisoblanadi.

Maqbara XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qurilgan bo'lib, arxeologlar tomonidan hali o'rganilmagan. Maqbara mahalliy yuqori tabaqadan bo'lgan Aliboy tomonidan qurilib, xonaqoh kunbotar tarafga yonbosh holatda, kvadrat shaklda bunyod etilgan. Eshigi ham kunbotar tarafga qarab qurilgan bo'lib, eshikning ikki yoni ark va peshtoq shaklida ishlangan. Maqbara qurilishi arxitektura uslubida qurilgan bo'lib, pishiq g'ishtlardan terilgan.

Termiz shahridagi nekrotoponimlar diniy va tarixiy ahamiyatga ega, balki mahalliy aholi uchun ham muhimdir. Ular o'z navbatida xalqning e'tiqodlari, urf-odatlari va tarixiy xotiralarini saqlab qolishga yordam beradi. Ziyorat qilish an'analari bu joylarni yanada muhim qiladi va mintaqa madaniyatini shakllantiradi. Termiz shahridagi nekrotoponimlar uning boy tarixi va madaniyatining ajralmas qismidir. Ushbu joylar mahalliy aholi va ziyoratchilar uchun diniy va madaniy ahamiyatga ega bo'lib, ularning o'tmishdagi merosini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda bu nekrotoponimlarni o'rganish mintaqaning tarixiy va madaniy merosini yanada chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Майоров М.В. Некронимы и некротопонимы - предлагаемые элементы ономастической системы // Русская национальная философия в трудах её создателей. <http://www.hrono.ru/statii/2006/nekronomiy.html>

2. Аскаров А., Ширинов Т. Древнебактрийский храм огня в Южном Узбекистане. В. сб. Градостроительство и архитектура. – Ташкент, 1989; Сарианиди В. И., И здесь говорил Заратуштра. – М., 1992.

3. Begmatov E. Istiqlol o'lkasining toponomik siyosati O'TA -1997 №_3

4. Zoitova Sh. Toshkent shahri nekrotoponimlarining leksik-semantik tahlili. Xalqaro ilmiy amaliy konferensiya Namangan 2022-yil